


Farmatsiya







5

2026

FARMATSIYA

ISSN-C-31796

№ 5 / 2026

Tahrir hay'ati:

1. Tillayeva G.U. – bosh muharir, f.f.d., professor, Farmatsevtik ishlab chiqishni tashkil qilish va sifat menejmenti kefadrasi, Toshkent farmatsevtika instituti.

2. Bagdasarova I.S. – b.f.n., professor, Tibbiy-biologik fanlar kafedrasi, Farmatsevtika ta'lim va tadqiqot instituti.

3. Dusmatov A.F. – f.f.d., professor, Farmatsevtika ta'lim va tadqiqot instituti rektori.

4. Iskandarova L.M. – OOO "Navkar Group" laboratoriya mudiri, farm. fanlari nomzodi.

5. Jalilov F. S. – f.f.d., professor, Tibbiyot fakulteti, Farmatsevtik kimyo kafedrasi mudiri. Alfraganus universiteti.

6. Kariyeva Y.S. – f.f.d., professor, Dori turlari texnologiyasi kefadrasi mudiri, Toshkent farmatsevtika instituti.

7. Komilov X.M. – f.f.d., professor, Farmakognoziya kafedrasi, Toshkent farmatsevtika instituti.

8. Mavlyanova M.B. – f.f.n., dosent, Farmatsevtika ta'lim va tadqiqot institute.

9. Maksudova F.X. – (muharrir o'rinbosari) f.f.d., professor, Dori vositalarini sanoat texnologiyasi kafedrasi mudiri, Toshkent farmatsevtika instituti.

10. Mirakilova D.B. – A.Sultonov nomli O'zbekiston kimyo-farmatsevtika ilmiy-tadqiqot instituti (UzKFITI) ilmiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari

11. Nazarova Z.A. – f.f.d., professor, Dori turlari texnologiyasi kefadrasi, Toshkent farmatsevtika instituti.

12. Nabiyev A.X. – t.f.n., yetakchi ilmiy xodim, Tajriba texnologiya laboratoriyasi, O'zR FA, Bioorganik kimyo instituti.

13. Xakimjanova Sh.O. (tehnik kotib) – Farmatsevtik ishlab chiqishni tashkil qilish va sifat menejmenti kefadrasi assistenti, Toshkent farmatsevtika instituti.

14. Olimov N.K. – f.f.d., professor, Farmakognoziya va dori vositalarini standartlash kafadrasi mudiri, Toshkent farmatsevtika instituti.

15. Qobilov N.S. – t.f.n., katta ilmiy xodim, "Sintetik dori vositalar kimyosi" laboratoriyasi, Milliy biofarmatsevtika ilmiy-tadqiqot instituti.

16. Sanayev Z.I. – t.f.n., katta ilmiy xodim, Farmakologiya va toksikologiya bo'limi, O'zR FA O'simlik moddalari kimyosi instituti.

17. Sidametova Z.E. (ma'sul kotib) – f.f.d., professor, Farmakognoziya va dori vositalarini standartlash kafadrasi, Toshkent farmatsevtika instituti.

18. Tillaeva U.M. – f.f.d., dotsent, Toshkent farmatsevtika instituti Xalqaro hamkorlik boyicha prorektor

19. Tulaganov A.A. – f.f.d., professor, O'zbekiston kimyo farmatsevtika ilmiy tadqiqot instituti, O'simliklar va sintetik Dori vositalarini texnologiyasi nomli laboratoria mudiri

20. Tulyaganov R.T. – b.f.d., professor, Farmakologiya va biologic fanlarkafedrasi, Toshkent farmatsevtika instituti.

21. Tagayaliyeva N.A. – b.f.n., katta ilmiy xodim, Biologik faol moddalar farmakologiya si va skrinigi laboratoriyasi mudiri, O'zR FA Bioorganik kimyo instituti.

22. Tukhtaev Kh.R. – f.f.d., professor, Noorganik, fizik va colloid kimyo kefadrasi, Toshkent farmatsevtika instituti.

23. **Tukhtaev B.E. –** b.f.d., professor, ToshDAU dorivor o'simliklar kafedrasi

24. Urmanova F.F. – f.f.d., professor, Farmakognoziya kafedrasi, Toshkent farmatsevtika instituti.

25. Usmanaliyeva Z.U. – f.f.d., professor, Farmatsevtik va toksikologik kimyo kefadrasi mudiri, Farmatsevtika va tadqiqot instituti.

26. Yunusxodjayeva N.A. – f.f.d., professor, Farmatsevtik va toksikologik kimyo kefadrasi, Farmatsevtika va tadqiqot instituti.

Tahrir kengashi:

Prof. Krasnyuk I.I. (Rossiya)
Prof. Dzhusupova Zh.D. (Rossiya)
Akad. Ramenskaya G.V. (Rossiya),
Akad. Patigorskaya N.V. (Rossiya),
Prof. Ordabaeva S.K. (Qozog'iston),
Prof. Sadchikova N.P. (Rossiya)
Prof. Bagirova V.L. (Rossiya)
Prof. Grizodub A.I. (Ukraina),
Prof. Kurmanov R. (Qirg'ziston),
Prof. Shukirbekova A.B. (Qozog'iston),
Akad. Sagdullayev Sh.Sh. (O'zbekiston),
Akad. To'rayev A.S. (O'zbekiston).

UDK 615.014.22:615.281

OYOQ GIPERGIDROZI KASALLIGI PROFILAKTIKASI UCHUN PARAFARMATSEVTIK LOS'ON TARKIBINI TANLASH

Rizayeva Nilufar Muxutdinovna, Aripova Nozima Xakimdjanovna, Kurbanbayeva Munira

Toshkent farmatsevtika instituti, Toshkent shahri, O'zbekiston Respublikasi
e-mail: nozima1108@list.ru

Annotsiya. *Oyoqlar gipergidrozini davolash uchun los'on tayyorlash uchun tanlangan turli kombinatsiyalardagi dori va yordamchi moddalarning 11 ta tarkibi o'rganildi. Tayyorlangan los'onlarning sifat ko'rsatkichlaridan tashqi ko'rinishi, rangi, hidi, etil spirtining massa ulushi, pH ko'rsatkichi o'rganildi. Ushbu ko'rsatkichlar tadqiqotlarga tayyorgarlik ko'rish vaqtida va ularni 3 oy davomida saqlagandan so'ng amalga oshirildi. Shunday qilib, olingan natijalar asosida oyoq gipergidrozini davolash uchun kalendula nastoykasi, urotropin, NaKMS, glitserin, 96% etil spirti, kaliy sorbati, natriy benzoat, moychechak damlamasidan iborat los'on tarkibi tanlandi va texnologiyasi ishlab chiqildi.*

Tayanch iboralar. *Los'on, gipergidroz, teri, damlama, barqarorlik, sifat ko'rsatkichlari, dori moddasi, yordamchi modda.*

Kirish. Dunyoda 2,5 milliondan ortiq odam teri yuzasi mikozlaridan aziyat chekadi, ularning dermatozlar tarkibidagi ulushi 37-40% ga yetadi. Kasallanishning o'sishi har yili 5% ga teng. 2003 yilda Yevropaning 16 mamlakatida o'tkazilgan va 70 mingdan ortiq kishini qamrab olgan ko'p markazli tadqiqot natijalariga ko'ra, ushbu kasallik 35% hollarda qayd etilgan. Oxirgi yillarda olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra ambulator sharoitda davolanayotgan bemorlarda teri yuzasi mikozlari bilan kasallanishning intensiv ko'rsatkichi 63,9‰ ni tashkil etgan.

So'nggi yillarda dermatologlarning mahalliy ortiqcha ter ajralishini davolash muammosiga qiziqishi ortib bormoqda. Gipergidroz surunkali holat bo'lib, u ko'proq kaft, oyoq va qo'ltiq osti sohalarida uchraydi. Ter ajralishi - evolyutsiya jarayonida shakllangan tabiiy mexanizmdir. Uning birlamchi vazifasi - tananing termoregulyatsiyasi. Deyarli barcha sutemizuvchilarda ter bezlari mavjud. Tana qiziganda ular faollashadi va bug'lanish paytida tanani sovutadigan o'ziga xos suyuqlik chiqaradi. Shuningdek, ter ajralishi teri orqali ortiqcha suv, metabolizm mahsulotlari, tuzlar va boshqa moddalarni chiqarish jarayonida ishtirok etadi.

Ya'ni bu tabiiy jarayon, lekin ba'zi odamlarda u juda shiddatli kechadi, hatto buning aniq sabablari bo'lmasa ham. Bu hodisa gipergidroz deb ataldi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyodagi odamlarning taxminan 5 foizi erkaklar va ayollarda bir xil darajada uchraydigan birlamchi gipergidrozdan, taxminan

15 foizi ikkilamchi gipergidrozdan aziyat chekadi. U mahalliy, faqat ter bezlari eng ko‘p to‘plangan ma’lum joylarda (qo‘ltiq ostida, oyoqlarda, boshda, yuzda, kaftlarda, chovda) yoki umumiy tarzda namoyon bo‘ladi. Bunday holat sog‘liq uchun xavf tug‘dirmasa-da, haddan tashqari namlanish noxush oqibatlarga olib kelishi mumkin[1].

Sprey ko‘rinishidagi los’on mahalliy farmatsiya uchun alohida qiziqish uyg‘otadi. Aerozollardan farqli o‘laroq, ular maxsus texnologik uskunalar, propellentlar ko‘rinishidagi yordamchi moddalar, aerozol ballonchalari ko‘rinishidagi qadoqlash materiallarini talab qilmaydi va atmosferaning ozon qatlamini buzishga ta’sir ko‘rsatmaydi. Sprey ko‘rinishidagi los’onlar zamonaviy tibbiyot amaliyotida muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda va farmasevtika bozorida keng tarqalgan. Barcha ma’lum dermatomikozlar orasida oyoq mikozi eng keng tarqalgan, bu nafaqat optimal dori moddasini tanlashni, balki tegishli dori shakli, oqilona foydalanishni ta’minlash uchun tanlangan vositalar to‘plamini tanlashni ham bilish zarur degani. Bugungi kunda mavjud bo‘lgan parafarmasevtik vositlar orasida eng ko‘p biofarmasevtik xususiyatlariga ko‘ra va texnologik ko‘rsatkichlar bo‘yicha ham mos keladigan parafarmasevtik vosita bu los’on-spreylar hisoblanadi.

Oyoq mikozini oldini olish va profilaktika samaradorligi ko‘pincha kasallik kechishining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olmasdan talqin qilinadi. Teri mikozlarining turli nozologik shakllarida antimikotikning 100% samaradorligi preparatga rezistentlikning yo‘qligidan dalolat beradi[2].

Ishning maqsadi: sprey ko‘rinishidagi los’on parafarmasevtik vositasining farmasevtika amaliyotida hozirgi holatini o‘rganish, istiqbollarini aniqlash, hozirgi kunda antimikotik spreylar assortimenti nisbatan cheklanganligi, ularning tarkibini tanlash va optimal texnologiyasini tanlash tadqiqotlarimiz maqsadi bo‘ldi. Shu munosabat bilan, zamburug‘larga qarshi los’onni ishlab chiqish imkoniyatlarini o‘rganish muhim va dolzarb masala hisoblanadi.

Usul va uslublar: Oyoq gipergidrozi kasalligini davolash uchun los’onni ishlab chiqishda o‘simlik xomashyosining kimyoviy tarkibi to‘g‘risidagi adabiyot ma’lumotlari, shuningdek, ulardan zamburug‘li kasalliklarni davolashda foydalanish to‘g‘risidagi ma’lumotlar hisobga olindi. Shuningdek, dori shaklini tayyorlash uchun bir qancha dorivor va yordamchi moddalardan iborat tarkiblar ustida izlanishlar olib borildi. Asosni tanlash dori shaklining maqsadi, fizik-kimyoviy va texnologik xususiyatlari, saqlashda dori shaklining barqarorligini ta’minlash zarurligini hisobga olgan holda amalga oshirildi. Gipergidroz kasalliklarini davolash uchun los’on-spreylar tarkibini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, ulardagi asos, odatda, glitserin (yoki uning spirt va suv bilan aralashmasi) bo‘lib, bu nafaqat teri bo‘ylab bir tekis taqsimlanadigan, balki unda uzoq vaqt saqlanadigan suyuqlik olish zarurati bilan izohlanadi. Tirnoqgul tinkturasini konsentratsiyasini tanlash nafaqat kerakli farmakologik ta’sirni, balki saqlash vaqtida dori shaklining barqarorligini ta’minlashni hisobga olgan holda amalga oshirildi.

Tadqiqot uchun dastlab dori vositasidagi nastoykaning 5, 10, 15 massa qismdagi konsentratsiyalari tanlab olindi. Olin-

gan mikroblarga qarshi faollik natijalariga ko‘ra, tirnoqgul nastoykasining optimal konsentratsiyasi 10 massa qismni tashkil etadi. Yordamchi moddalarning miqdori dori shakli ega bo‘lishi kerak bo‘lgan xususiyatlar: qovushqoqlik, eritmaning bir xilligi va purkashning bir xilligi bilan bog‘liq bo‘ldi. Sirtga ishlatiladigan dori shakllarida urotrpin 5 dan 40% gacha konsentratsiyalarda kiritiladi, bu ushbu moddaning standart kontsentratsiyasidir. Yallig‘lanishga qarshi potensial faollikka ega bo‘lgan ekstraksion preparat tarkibiga urotrpinning eng past konsentratsiyasi 5% ni qo‘shishni hisobga olgan holda tanlab olindi. Ekstraksion preparatlar turli xil konsentratsiyalarda, o‘rtacha 2 dan 20% gacha topik shakllar tarkibiga kirishi mumkin. Los’onlarning kombinatsiyalangan tarkibini ishlab chiqishni hisobga olgan holda 10% konsentratsiya tanlandi, bu urotropinning ta’sirini kuchaytirishga imkon beradi, ammo shu bilan birga, nastoyka tarkibida tirnoqgul mavjudligi tufayli mahalliy ta’sirlanish xavfini oshirmaydi. Asosiy erituvchi sifatida urotropinning fizik-kimyoviy xususiyatlarini hisobga olgan holda 96% etanol va dorivor moychechakning suvli damlamasi tanlangan bo‘lib, ular лосьон hajmining 40 dan 50% gacha bo‘lishi mumkin. Terida uzoqroq qolish uchun лосьонlar tarkibiga plyonka hosil qiluvchilar yoki quyuqlashtiruvchilar - natriy karboksimetilsellyuloza, metilsellyuloza qo‘shish tavsiya etiladi. Ular spirtlarning teri yuzasidan juda tez bug‘lanishiga to‘sqinlik qiladi va ta’sir etuvchi moddaning teri orqali uzoqroq diffuziyalanishiga yordam beradi. Quyuqlashtiruvchining konsentratsiyasi uning xususiyatlariga qarab 0,5 dan 7% gacha o‘zgarishi mumkin. Teriga yumshatuvchi ta’sirni ta’minlash uchun los’on tarkibiga glitserin qo‘shildi. Adabiyot ma’lumotlariga ko‘ra, har qanday teri turi uchun los’onlardagi glitserin konsentratsiyasi 10-15% bo‘lishi tavsiya etiladi.

Ma’lumotlarga asoslanib dorivor modda va yordamchi moddalar ob’ektlari tanlab olindi. Dorivor moddalar sifatida moychechak suyuq ekstrakti va damlamasi, tirnoqgul nastoykasi, achchiqtosh, nistatin, geksametilen tetramin, yordamchi moddalardan asos sifatida metilselluloza, NaKMS, konservantlardan nipagin, nipazol, spirt 96 %, kaliy sorbat, natriy benzoat, erituvchilar glitserin,tozalangan suv tanlab olindi[3,4].

Tajriba davomida 1-jadvalda keltirilgan dori vositasining turli tarkiblari ishlab chiqildi. Tayyorlangan tarkiblarni sifati va saqlanishdagi turg‘unliklari bo‘yicha baholandi.

Oyoq soxasidagi gipergidroz kasalliga davolash uchun los’on parafarmasevtik vositani tayyorlash uchun tanlab olingan dorivor va yordamchi moddalarni turli kombinatsiyalarda 11 ta tarkibi o‘rganildi. Yordamchi moddalarning miqdori dori shakli ega bo‘lishi kerak bo‘lgan xususiyatlar: qovushqoqlik, eritmaning bir xilligi va purkashning bir xilligi bilan bog‘liq edi.

1-jadval

Oyoq gipergidrozi kasalligini davolash uchun los'on tarkiblari

Tarkib	№1	№2	№3	№4	№5	№6	№7	№8	№9
Tirnoqgul tindirmasi	10 ml	10 ml	10 ml	10 ml	10 ml	10 ml	10 ml	10 ml	10 ml
Urotropin	5,0	5,0	5,0	5,0	5,0	5,0	5,0	5,0	5,0
Metilsel-luloza	2,0		1,0						
NaKMS		2,0	1,0					0,6	1,0
Jelatina				3,0		2,0			
Aerosil					3,0		2,0		
Glitserin	10,0	10,0	10,0	10,0	10,0	10,0	10,0	10,0	10,0
Spirt 96%	38,3	38,6	20,0	21,10	21,0	20,80	38,6	20,0	33,6
Moychechak damlamasi	100 mlgacha	100 mlgacha	100 mlgacha	100 mlgacha	100 mlgacha	100 mlgacha	100 mlgacha	100 mlgacha	100 mlgacha
Umumiy hajm	100 ml	100 ml	100 ml	100 ml	100 ml	100 ml	100 ml	100 ml	100 ml

Los'on tarkibini optimal tanlash uchun ularning sifatini baholash bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish zarur edi. Organoleptik baholash natijalariga ko'ra, bir sutka davomida 1-tarkibda kristall cho'kma, 3, 4, 7-tarkiblarda biroz loyqa, 9, 10-tarkiblarda mayda dispersli cho'kma hosil bo'ldi. Barcha tarkiblar o'ziga xos hidga ega bo'lgan och yashil-sarg'ish jigarrang tusga ega bo'lib, bu tirnoqgul nastoykasining mavjudligi bilan bog'liq. 2, 5, 6 va 8-tarkiblar vaqt davomida to'liq shaffof va barqaror bo'ldi. Lekin saqlanishning 8 kuniga kelib barqaror tarkiblarda ham xiralashish va cho'kma tushishi kuzatildi, shuning uchun keyingi izlanishlarimiz olingan tarkiblarni barqarorlashtirishga qaratildi. Turg'unlashtirish uchun konservantlardan kaliy sorbat va natriy benzoatdan foydalanildi.

2-jadval

Oyoq gipergidrozi kasalligini davolash uchun los'on turg'unlashtirilgan tarkiblari

	Tarkib	**№1**	**№2**	**№3**	**№4**	**№5**	**№6**	**№7**	**№8**	**№9**	**№10**	**№11**
1	Tirnoqgul tindirmasi	10ml	10ml	10ml	10ml	10ml	10ml	10ml	10ml	10ml	10ml	10ml
2	Urotropin	5,0	5,0	5,0	5,0	5,0	5,0	5,0	5,0	5,0	5,0	5,0
3	Metilselluloza	2,0		3,0	4,0	1,0						
4	NaKMS		2,0			1,0	0,5	0,6	0,8	1,0	0,6	1,0

5	Jelatina	10,0	10,0	10,0	10,0	10,0	10,0	10,0	10,0	10,0	10,0	10,0
6	Aərosil	0,2	0,2	0,3	0,3			0,2				
7	Glitserin	0,1	0,1			0,3	0,3	0,1				
8	Spirt 96%	38,3	38,6	38,6	10	20	21,10	21	20,80	38,6	20	33,6
9	Kaliy sorbat	0,4	0,4	0,4	0,4	0,4	0,4	0	0,8	0,8	0,2	0,2
10	Natriy benzoat										0,2	0,2
11	Moychechak damlamasi	100ml gacha	100ml gacha	100ml gacha	100ml gacha	100ml gacha	100ml gacha	100ml gacha	100ml gacha	100ml gacha	100ml gacha	100ml gacha
	Umumiy hajm	100ml	100ml	100ml	100ml	100ml	100ml	100ml	100ml	100ml	100ml	100ml

Maqbul kompozitsiyani tanlash bo‘yicha tadqiqotlarning yakuniy bosqichi yordamchi moddalarning qovushqoqligini aniqlash bo‘lib, u dozalash qurilmasi orqali los’onning ajralib chiqish tezligi va to‘liqligiga ta’sir qiluvchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Tayyorlangan los’onlar sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha tadqiqotlar tayyorlash vaqtida va 30 kun davomida saqlangandan so‘ng o‘tkazildi. Sifat ko‘rsatkichlarini o‘rganish bo‘yicha barcha ma’lumotlar 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

O‘simlik ajratmalari asosidagi los’on sifat ko‘rsatkichlari

Sifat ko‘rsat-kichlar	**Me’yori**	**№1**	**№2**	**№3**	**№4**	**№5**	**№6**	**№7**	**№8**	**№9**	**№10**	**№11**
Tashqi ko‘rinishi	Shaffof yoki biroz xira suyuqlik, ozgina cho‘kma, xiralashuv bo‘lishiga yo‘l qo‘yiladi.	Mos emas	Mos emas	Mos emas	Mos emas	Mos emas	Mos emas	Mos emas	Mos emas	Mos emas	mos	mos
Rangi	Los’onni o‘ziga xos rang (damlama ga xos)	Mos emas	Mos emas	Mos emas	Mos emas	Mos emas	Mos emas	Mos emas	Mos emas	mos	mos	mos
Xidi	O‘ziga xos xushbo‘y xidga əga los’on	Mos emas	Mos emas	Mos emas	Mos emas	Mos emas	Mos emas	Mos emas	Mos emas	mos	mos	mos

Etil spirtining massa ulushi, %	17,0-90,0	40,2	43,1	41,2	9,6	19,6	19,2	19,8	19,9	40,2	19,2	32,25
pH ko‘rsatkichi	3.0-8.5	6,7	6,4	6,7	5,9	6,04	6,65	6,45	6,8	6,78	6,3	6,93

Oyoq gipergidrozining oldini olish uchun parafarmatsevtik vositani ishlab chiqish klinik jihatdan asoslangan antiperspirant komponentlar, samarali adsorbentlar va antiseptik komponentlarni birlashtirishni talab qiladi. Ushbu moddalarning los’on ko‘rinishidagi kombinatsiyasi qo‘llash qulayligini ta’minlaydi, chidamlilikni yaxshilaydi va asoratlar xavfini kamaytiradi.

Tadqiqotlar davomida saqlash jarayonida los’onning barqarorligi masalasiga katta e’tibor qaratildi. Aniqlanishicha, los’onning mikroblar bilan kontaminatsiyasi uni tayyorlash va xona haroratida saqlashdan 8 kun o‘tgach kuzatilgan. Los’onning mikrobiologik barqarorligiga erishish maqsadida uning tarkibiga konservant qo‘shish maqsadga muvofiqdir. Turli xil dorivor va kosmetik shakllarda qo‘llaniladigan bu moddalarning assortimenti juda keng. Los’on muhitiga qo‘yiladigan talabni - kuchsiz kislotali bo‘lishi kerakligini hisobga olgan holda, nipagin, nipazol, kaliy sorbat, natriy benzoatdan 0,1% dan 0,8% gacha bo‘lgan konsentratsiyalarda o‘rganildi. 12 oy davomida saqlanganda maksimal mikrobiologik barqarorlikni 0,2% konsentratsiyadagi kaliy sorbat va 0,2% kontsentratsiyada natriy benzoat aralashmasi ta’minladi. Konservantning muvaffaqiyatli tanlanishi nafaqat uning los’on tarkibidagi past konsentratsiyasi, balki antiseptik xususiyatlari bilan ham asoslanadi, bu esa tavsiya etilgan los’onning ta’sirini foydali tarzda to‘ldiradi.

Shunday qilib, olingan natijalar asosida oyoq gipergidrozi kasalligini davolash uchun los’on tarkibi tanlandi va texnologiyasi ishlab chiqildi:

tirnoqgul nastoykasi	10,0
Urotrapin	5,0
NaKMS	1,0
Glitserin	10,0
Spirt 96 %	33,6
Kaliy sorbat	0,2
Natriy benzoat	0,2
Moychechak damlamasi	100,0 gacha
Umumiy massa	100,0

Oyoq soxasidagi gipergidroz kasalliga davolash uchun los’on parafarmatsevtik vositani tayyorlash uchun tanlab olingan dorivor va yordamchi moddalarni turli kombinatsiyalarda 11 ta tarkibi o‘rganildi. Yordamchi moddalarning miqdori dori shakli ega bo‘lishi kerak bo‘lgan xususiyatlar: qovushqoqlik, eritmaning bir xilligi va purkashning bir xilligi bilan bog‘liq edi. Maqbul kompozitsiyani tanlash bo‘yicha tadqiqotlarning yakuniy bosqichi yordamchi moddalarning qovushqoqligini aniqlash bo‘lib, u dozalash qurilmasi orqali los’onning ajralib chiqish tezligi va

to‘liqligiga ta’sir qiluvchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Xulosalar: Tayyorlangan los’onlar sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha tadqiqotlar tayyorlash vaqtida va 3 oy davomida saqlangandan so‘ng o‘tkazildi. Shunday qilib, olingan natijalar asosida oyoq gipergidrozi kasalligini davolash uchun tarkibi tanlandi va texnologiyasi ishlab chiqildi: tirnoqgul nastoykasi, urotrapin, NaKMS, glitserin, spirt 96%, kaliy sorbat, natriy benzoat, moychechak damlamasi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Комисаренко, Н.Ф. Антигрибковая активност некоторых природных флавоноидов, фуранохромонов, кумаринов и-антрахинонов / Н.Ф: Комиссаренко, С.Э. Дмитрук, А.Н. Комисаренко// Раст. ресурсы. - 1991. Т. 27, Вып. 1.-С.3-9.

2. Выбор и биофармацевтическое исследование вспомогателных композиций для некоторых интраназалных и трансдермалных лекарственных форм/Э.Ф. Степанова, Э.В. Ковтун, Л.В. Погребняк [и др.] //Медицинский вестник Башкортостана. 2022. - Т. 17. - № 2 (98). - С. 40-46.

3. Baratova M.B., Karieva E.S. Selection of the composition and development of technology of medical-cosmetic lotion based on plant extract //American Journal of Biomedical Sciences and Pharmaceutical Innovation.-2022.-Vol. 02 (12).-P. 1-7 (ISSN: 2771-2753; ResearchBib=13,32).

4. М.Б.Баратова, Н.М.Ризаева, Н.Х.Арипова. Разработка состава и технологии лечебно-профилактического лосьона для проблемной кожи/ Фармация ва фармакология.- 2024.-№1.-48-53.С

ВЫБОР СОСТАВА ПАРАФАРМАЦЕВТИЧЕСКОГО ЛОСЬОНА ДЛЯ ПРОФИЛАКТИКИ ГИПЕРГИДРОЗА НОГ

Ризаева Нилуфар Мухутдиновна,
Арипова Нозима Хакимджановна,
Курбанбаева Мунира

Ташкентский фармацевтический институт, город Ташкент, Республика Узбекистан
e-mail: nozima1108@list.ru

Аннотация. Изучено 11 составов лекарственных и вспомогательных веществ в различных комбинациях, отобранных для приготовления лосьона для лечения гипергидроза нижних конечностей. Из качественных показателей подготовленных лосьонов были изучены внешний вид, цвет, запах, массовая доля этилового спирта, показател pH. Эти показатели проводились во время подготовки исследований и после их хранения в течение 3 месяцев. Таким образом, на основании полученных результатов был выбран состав и разработана технология лосьона для лечения гипергидроза нижних конечностей состоящий из: настойки календулы, уротрапина, NaКМЦ, глицерин, спирт этилового 96%, сорбата калия, бензоата натрия, настоя ромашки.

Ключевые слова: лосьон, гипергидроз, кожа, настой, стабильность, показатели качества, лекарственное вещество, вспомогательное вещество.

SELECTION OF THE COMPOSITION FOR A PARAPHARMACEUTICAL LOTION FOR THE PREVENTION OF FOOT HYPERHIDROSIS

Rizaeva Nilufar Mukhutdinovna,
Aripova Nozima Khakimjanovna,
Kurbanbaeva Munira

Tashkent Pharmaceutical Institute
Tashkent, Republic of Uzbekistan
e-mail: nozima1108@list.ru

Abstract. Medicinal and auxiliary substances in various combinations were studied for the preparation of a lotion for the treatment of hyperhidrosis of the lower extremities. Among the qualitative indicators of the prepared lotions, the following were studied: appearance, color, odor, mass fraction of ethyl alcohol, and pH value. These indicators were assessed at the time of preparation and after 3 months of storage. Thus, based on the results obtained, a composition was selected and a technology was developed for a lotion to treat hyperhidrosis of the lower extremities, consisting of: calendula tincture, urotropin, NaCMC, glycerin, 96% ethyl alcohol, potassium sorbate, sodium benzoate, and chamomile infusion.

Keywords: lotion, hyperhidrosis, skin, infusion, stability, quality indicators, medicinal substance, auxiliary substance.